



IJTIMOIIY SOHALARDAGI VAZIFALAR MUHOKAMA QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 5-fevral kuni ijtimoiy sohalardagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.

O‘zbekistonda ijtimoiy davlat qurish strategik maqsad etib belgilangan. Aholi turmushi uchun munosib sharoitlar yaratish, ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va sport sohalarini rivojlantirish bo‘yicha barcha choralarni ko‘rilmog‘da.

Oxirgi yetti yilda maktabgacha ta’limda qamrov 27 foizdan 74 foizga yetdi. Yangi maktablar qurilib, qo‘shimcha 700 mingta o‘quvchi o‘rni yaratildi. Prezident maktablari tashkil etildi, ixtisoslashtirilgan maktablar ko‘paydi. Oliy o‘quv yurtlari soni 200 tadan oshib, qamrovi 42 foizga yetdi. Ta’lim va tibbiyotda xususiy sektorga keng yo‘l ochilib, sifatga intilish paydo bo‘ldi.

Shu bilan birga, bu sohalarda aholi bilan ishlash, standartlarni yangilash va raqamlashtirish borasida kamchiliklar bor. Yig‘ilishda shu kabi muammolar tahlil qilinib, joriy yilgi vazifalar belgilandi.

Barcha maktabgacha ta’lim muassasalarini milliy qadriyatlarimizga mos o‘quv-metodik materiallar bilan ta’minlash, ovqat ta’minoti, davomat, badal puli kabi jarayonlarni to‘liq raqamlashtirish zarurligi ta’kidlandi. Bog‘cha mudirialigiga nomzodlarni saralash va lavozimga tayinlash, tarbiyachilar malakasini oshirish masalalariga ham to‘xtalib o‘tiladi.

Ta’lim sohasida vazifalar juda ko‘p. Shu bois, o‘tgan haftada Loyiha ofisi tashkil qilinib, ta’lim katta ilmiy-amaliy tajribasi bor mutaxassislar jamlandi. Endi mazkur ofis Ta’limni rivojlantirish ilmiy-metodik markazi bilan birgalikda maktablarda matematika, fizika, kimyo, biologiya va xorijiy tillar bo‘yicha o‘quv reja va dasturlarini xalqaro standartlar asosida yangilaydi. O‘quvchi va muallimlar bilimini baholashda xalqaro tajribalar (PISA, TIMSS, PIRLS) bosqichmabosqich joriy etiladi.

Prezident maktablari ta’lim dasturi yana bir mingga maktabda qo‘llanadi. Ularning moddiy-texnik bazasi shunga muvofiq yaxshilanadi. Maktablarga “til egalari”ni olib kelish amaliyoti kengaytiriladi.

Yoshlar maktab davridayoq, hech bo‘lmassa, bitta hunarni egallab, katta hayotga qadam qo‘ysa, o‘z yo‘lini topadi. Shu maqsadda 50 ta kasb-hunar ro‘yxati tuzilib, ular bo‘yicha o‘quv va amaliyot dasturlari ishlab chiqiladi. Maktablarda ustaxonalar, tadbirkorlar va mutaxassislarni jalb qilgan holda to‘g‘araklar tashkil etiladi. “Kasbiy ta’lim ustasi” lavozimi ochiladi. Maktablardagi bo‘sh joylar tadbirkorlarga o‘quvchilarni kasb-hunarga o‘qitish uchun tekin foydalanishga beriladi. O‘quv kursini tamomlab, imtihondan o‘tgan o‘g‘il-qizlarga malaka sertifikat beriladi.

Davlatimiz rahbari maktablardagi tarbiya va ma’naviyat masalasiga alohida to‘xtaldi. O‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash orqali ular “huquqbuzarlikka qarshi immunitet” hosil qilish zarurligi ta’kidlandi. Maktablardagi 2 mingga inspektor-psixolog shlati Ichki ishlar vazirligidan Milliy gvardiya tizimiga o‘tkazilishi belgilandi.

Darslardagi davomatga, tarbiyasi og‘ir o‘quvchilarga alohida e’tibor qaratiladi. Ota-onalar va mahalla raislarining bu boradagi mas’uliyati oshiriladi. “Maktab — ota-ona — mahalla” zanjiri asosida elektron muloqot platformasi ishga tushiriladi.

Yoshlar o‘rtasida ommalashtirgan ijtimoiy tarmoqlar tahlil qilinib, ularning zararli

ta’siridan himoyalalanish va ijobiy tomonidan foydalanish choralari ko‘riladi. Shuningdek, ota-onalar uchun farzand ta’lim-tarbiyasi bo‘yicha xalqchil tilda qo‘llanmalar tayyorlanadi.

— Bu tashabbuslar yo‘lga qo‘yilsa, maktab ta’limi bo‘yicha ota-onada mas’uliyat, o‘qituvchida majburiyat, o‘quvchida ishonch, ta’lim va tarbiyada sifat, mahallada esa nazorat bo‘ladi, — dedi Prezident.

Professional va oliy ta’limdagi ayrim yo‘nalishlar hozirgi mehnat bozoriga, texnologik yangilanishlarga mos emasligi ko‘rsatib o‘tiladi. Ish beruvchilarda katta ehtiyoj, talabalarda salohiyat va xohish bor. Lekin ularni bog‘laydigan uzviy tizim yo‘q.

Shu bois, endi Kasbiy bilim va malakalarni rivojlantirish respublikalari kengashi hamda Mehnat bozori tadqiqotlari instituti ta’lim sohasidagi Loyiha ofisiga birlashtiriladi.

Talab yuqori bo‘lgan 100 ta kasb standartlari Germaniya, Shveysariya va Buyuk Britaniya tajribasi asosida yangilanadi. Bunda malaka talabi ish beruvchi ehtiyojiga moslashadi. Professional ta’lim ustozlariga yangi standartlar bo‘yicha o‘qitish talablari qo‘yiladi.

Yangi o‘quv yilidan boshlab, texnikumlarda o‘qitish “akademik” va “ishchi kasb” komponentlarining uzviyligini ta’minlaydigan yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yiladi. Bunda kollej-texnikumning 1-2-kursidagi ta’lim dasturlari, darsliklar, bilimni baholash mezonlari va muallimlar talablar oliyogohlar bilan bir xil bo‘ladi.

Texnikumlarda ham “kredit tizimi” joriy qilinib, fanni o‘zlashtirish bo‘yicha to‘plangan “kreditlar” oliyogohlarda tan olinadigan tizim bo‘ladi. Ya’ni kollej-texnikumda ikki yil davomida yetarli “kredit” to‘plagan o‘quvchilar “2+2” yoki “2+3” dasturlari asosida oliyoghlarning ikkinchi yoki uchinchikurslarida ta’limni davom ettirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Kollej-texnikumda o‘qib, faoliyatini ishlab chiqarishda davom ettirmoqchi bo‘lganlarning sohadagi mavqei oshirish bo‘yicha ham yangi tizim yo‘lga qo‘yiladi. Endi kollej-texnikumda “ishchi kasb” yo‘nalishida o‘qiganlar ikki yoki uch yil ishlash, tajriba orttirganidan keyin, imtihon topshirib, bakalavrga teng malaka darajasini olishi mumkin.

Mutasaddilarga xorijiy tajriba asosida oliyogoh, texnikum va kollejning bir-biriga bog‘lash shartlari va tartibini ishlab chiqish topshirildi. Oliy ta’lim muassasalariga maqom berishning aniq mezonlarini belgilash, bakalavr yo‘nalishlarini maqbullashtirish, ta’lim dasturlarini dunyodagi 300 ta eng yaxshi oliyogoh dasturi asosida yangilash vazifasi qo‘yildi.

“El-yurt umidi” jamg‘armasi Prezident Administratsiyasi huzuriga o‘tkazilib, xorijda o‘qish bo‘yicha yangi tizim joriy etilishi belgilandi.

Aholi hayotida katta o‘rin tutadigan sohalardan biri bu sog‘liqni saqlash. Yig‘ilishda bu boradagi dolzarb masalalarga alohida e’tibor qaratildi.

Birlamchi tibbiyot tizimida sifat va mutaxassislar yetishmasligi qayd etilgan ekan, Sog‘liqni saqlash vazirligiga sohadagi barcha vakansiyalarni onlayn platformaga joylashtirib, kadrlarni ishga olish bo‘yicha shaf-fof tizim yaratish topshirildi.

Ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, avvalo, qishloqlar aholisiga xizmat qilishi kerakligi ta’kidlandi. Ularni birlamchi bo‘g‘in bilan bog‘lash, ish tizimini raqamlashtirish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Kasalliklarni erta aniqlash maqsadida endilikda xavf guruhiga kiruvchi aholini yurak-qon tomir, onkologiya va endokrin kasalliklari skriningidan o‘tkazish tizimi o‘zgartiriladi. Buning uchun respublika kardiologiya, endokrinologiya, onkologiya markazlari mas’ul bo‘ladi.

Shuningdek, onkologiya bo‘yicha har bir erta aniqlangan holat uchun tibbiyot brigadalariga mukofot berish joriy qilinadi. Bu tajriba 1-maydan Qashqadaryoda boshlanadi va kelgusi yildan boshqa hududlarda yo‘lga qo‘yiladi.

Xorijiy ekspertlar jalb qilinib, eskirgan klinik protokol va standartlar xalqaro mezonlarga moslashtiriladi. Kasalligi yengil bemorlarni dori bilan emas, immunitetni ko‘taruvchi tabiiy vositalar, jismoniy mashq va fitoterapiya bilan davolash kengaytiriladi.

Tibbiyot sohasidagi 23 ta markaz, 12 ta oliyogoh, 2 ta malaka oshirish markaziga zamonaviy menejerlar ishga olinib, xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkaziladi. Buning natijasida shifokor va hamshiralarni yangicha o‘qitiladi, davolash sifati oshadi, dori yozish kamayadi, eng muhimi — rivojlangan klinikalar muhiti kirib keladi.

So‘nggi ikki yilda tibbiyot sohasini raqamlashtirishga byudjetdan 90 milliard so‘m yo‘naltirildi. Buning natijasida aholiga ko‘plab qulayliklar yaratildi. Endi “Elektron poliklinika”, “Elektron shifoxona” va “Elektron tibbiy karta” tizimlari ishga tushirildi. Kafolatlangan paketga kirgan dorilarni elektron retsept asosida berish yo‘lga qo‘yiladi. Viloyat shifoxonalari ham elektron yo‘llanma tizimiga ulanadi.

Davlatimiz rahbari har bir ona va bola o‘limiga “favqulodda holat”, deb qarash kerakligini ta’kidladi. Tug‘uruqxonalarni zamonaviy uskunalar bilan jihozlash, homilador va tug‘ruq yoshidagi ayollar salomatligini mustahkamlash, doya va hamshiralarni qo‘shimcha o‘qitish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Madaniyat sohasida avval belgilangan vazifalar ijrosi tahlil qilindi. Har bir tumanda kinozali, kutubxonasi va to‘garak xonalari bo‘lgan madaniyat markazi barpo etish, hududlarda madaniy tadbirlar o‘tkazish va yoshlarni san’atga jalb qilish masalalari ko‘rsatib o‘tiladi.

Shuningdek, mahallalarni ommaviy sport turidan biriga ixtisoslashtirish, hududlar va respublika miqyosida musobaqalar tashkil etish bo‘yicha vazifalar qo‘yildi.

Shu yil Parijda bo‘lib o‘tadigan yozgi Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlariga tayyorgarlik masalalari ham ko‘rib chiqildi. Sportchilarning yo‘llanmalarni qo‘lga kiritishi va musobaqalarga yaxshi tayyorgarlik ko‘rishi uchun barcha sharoitlar yaratilishi aytiladi. Ularni chuqurlashtirgan tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish, farmakologiya va diyetologiya jihatidan sifatli ta’minlash muhimligi ta’kidlandi.

Yig‘ilishda muhokama qilingan masalalar yuzasidan mutasaddilarning axboroti eshitildi.

O‘ZA

Tafakkur

“SENI BILMASLARGA RAHMIM KELADI”

yoxud dag‘al so‘zli — dushman qilur do‘stini



O‘tgan asrning boshlarida bir katta siyosatchi aytgan ekan: “Avval barbod qilamiz, so‘ng qahramonlarcha tiklaymiz...”. Mutafakkirlardan biri esa shunday lutf yozib qoldirgan: “Odamlar kitob o‘qishdan to‘xtasa, fikrlashdan ham to‘xtaydi. Fikrsizdan esa vatanparvarlik kutmang”. Birinchi iqtibosning davomi ham bor: “...Shundagina bizning nimalarga qodir ekanimiz aniq namoyon bo‘ladi”.

Kamina sobiq ittifoq tuzumini ko‘rgan avlod vakili sifatida yuqoridagi ikki iqtibosning hayotdagi to‘liq ifodasini sho‘rolar olib borgan siyosat misolida ko‘rganman. Gap shundaki, sovet xalqlarining tarixi, tili, urf-odat va qadriyatlarini barbot qilinib, ularni yangi tamoyillar asosida tiklash rejasini amalga bo‘ldi. Asosan, harbiy soha rivojlantirilib, odamlar bir amal-lab qorin to‘ydirdi, shuning o‘zi baxt ekani shuunimizga singdirildi. Ayni yondashuv orqali, fuqarosi o‘zini baxtiyor xis qiladigan davlatning “eng qudratli mamlakat” obrazi yaratildi.

Tajovuzkorlikka bo‘ysundirilgan harbiy quvvat barcha respublikalar va jahon hamjamiyatini qo‘rquvga soldi.

Ikkinchidan, dunyo ilm-fani yutuqlari, jahon adabiyoti sara durdonalari o‘rniga odamlarga haqiqatan uzoq, faqat sun‘iy o‘ylab topilgan sotsialistik realizm ustuniga qurilgan kitoblar tiqishtirildi, kommunizm g‘oyalari soxtakorlik bilan ko‘klarga ko‘tarilib, manqurtlashtirish harakati avj oldi. Yuzlab xalq va elat vakillari “yagona sovet millati” halqasiga qamab qo‘yildi.

Eng alam qiladigani, taqchillik, nochorlik markaz va uning poytaxti uchun begona edi. U yerlarda farovonlik, to‘kinlik, orzudagi hayot tarzi ta’minlangandi. Qardosh respublikalar esa xomashyo bazasiga aylantirilib, boshqa millatlarning tilini qisqir qilish maqsadida halol mehnat qilayotgan mahalliy xalqlar “o‘g‘ri-muttaham”, “tekintomoq” tamg‘alari bilan niqtab turildi.

Davomi 3-betda

Dolzarb mavzu

SHOLICHILIK ISTIQBOLLARI

GLOBAL IQLIM O‘ZGARISHI SHAROITIDAGI MUAMMOLAR,
ILM-FAN VA INNOVATSIYAGA ASOSLANGAN YECHIMLAR

Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash tobora qiyinlashib borayotgan hozirgi sharoitda sholichilik amaliyotida katta imkoniyat mavjud. Chunki sholi boshloq donli ekinlari ichida eng ko‘p hosil beradigan o‘simlik. Masalan, Xitoyda ekiladigan har gektar sholidan 200 sentnerdan hosil olinib, jahon rekordi yangilangani so‘zimiz tasdig‘idir. Uning yuqori hosilli va gibrid navlarini ekib, suv va resurstejamkor hamda ilg‘or ilm-fan yutuqlarini, yangi innovatsion texnologiyalarni o‘z vaqtida joriy qilish asosida sholi asosiy ekin sifatida ekilganda gektariga 90-100, bug‘doydan keyin takroriy ekilganda 50-60 sentnerdan hosil olish, bir yilda 2 marta don yetishtirish mumkin.

Hozirgi suv tanqis sharoitda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm, Sirdaryo viloyatlari va Farg‘ona vodiysida bug‘doydan keyin takroriy ekin sifatida qo‘shimcha yerga sholini ko‘chat usulida

ekish to‘g‘risida topshiriq berilgan. Shu asosda guruh yetishtirish hajmini ko‘paytirib, aholini o‘zimizda yetishtirilgan guruh bilan ta’minlash imkoniyati yaratiladi.

Davomi 4-betda

Xalqaro hamkorlik



Munosabat



Bizning intervyu

O‘ZBEK TILIGA
QIZIQISH —
O‘ZBEKISTONGA
QIZIQISHDAN
BOSHLANADI





Xalqaro hamkorlik

“YASHIL HAFTALIK” O‘ZBEKISTON QISHLOQ XO‘JALIGI UCHUN MANFAATLI

O‘tgan oyning so‘nggi o‘n kunligida Germaniyaning Berlin shahrida “Green Week — 2024” xalqaro qishloq xo‘jaligi ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tdi. Agrar tizimning mazkur xalqaro platformasi 30 yillik tarixga ega va u yetmishdan ortiq davlat vakillarini atrofida jamlagan. Mamlakatimiz delegatsiyasi ham 14 yildan buyon ko‘rgazmada muntazam qatnashib keladi.

Ko‘rgazma doirasida qishloq xo‘jaligi vazirlari agrar sohada erishilgan yutuqlar, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, sohadagi xavf-xatarlarning oldini olish hamda iqlim o‘zgarishiga qarshi birgalikda kurashish yuzasidan o‘zaro muloqot qiladi.

Joriy yilgi tadbirida “Made in Uzbekistan” brendi ostida “Sunny Fruit Production”, “Best Tastes Technology”, “Master Global Plyus”, “Gazalkent Meva” kabi jami 43 ta korxonaning sharbat, qiyom, murabbo, konservalangan, ho‘l va quritilgan mevasabzavotlari, poliz mahsulotlari namoyish etildi.

Mazkur xalqaro tadbir O‘zbekiston qishloq xo‘jaligiga nima beradi?

Bugun dunyo bozorida tabiiy, ekologik toza, organik mahsulotlarga talab tobora ortib bormoqda. O‘zbekistonning esa bu borada imkoniyati ancha yuqori. Chunki dehqon mehiri, zaminimiz kuchi va quyoshimiz taftiga to‘yingan mevalarimiz, poliz mahsulotlarimizni boshqa joydan topish mushkul. “Yashil haftalik” iste‘molchilarga ana shu betakror mahsulotlarni xarid qilish imkoniyatini beradi. Bu esa bizga yangi bozorlarga kirish uchun sharoit yaratadi.

Albatta, milliy mahsulotlarimiz ishtirokchilarda katta qiziqish uyg‘otdi. Muloqotlar chog‘ida mamlakatimiz agrar sohada erishilayotgan yutuqlar, inves-

titsiyaviy muhit, tizimga qaratilayotgan yuksak e‘tibor va imtiyozlar, istiqbolli rejalar xususida batafsil ma‘lumotlar berildi.

— Ko‘rgazmada Italiya, Germaniya, Janubiy Afrika Respublikasi, Fransiya, Litvaning mashhur kompaniyalari bilan shartnomalar imzolandi, — deydi Qishloq xo‘jaligi vazirligi boshqarma boshlig‘i Bahodir Yunusov. — Hamkorlar behi, anor, uzum, qovun, o‘rik turshagi, olxo‘ri, mayiz hamda dukkakli mahsulotlarimizni Yevropa bozorlariga olib kirish istagini bildirdi. Buning uchun 92,2 million AQSH dollarilik eksport savdo kelishuvlariga erishildi.

Yurtimizda yiliga 23 million tonna mevasabzavot yetishtiriladi. Shundan 1,5 million tonna ho‘l meva eksportga chiqariladi, 3,5-4 million tonnasi qayta ishlanadi. Mahsulotni qayta ishlash quvvatini oshirish, qo‘shimcha qiymat zanjirini yaratish, birlamchi qayta ishlash orqali yaroqlilik muddatini uzaytirib, yuqori narxlarda sotish borasida modernizatsiya va texnologik qayta jihozlash ishlari amalga oshirilmoqda. Shu bois, Niderlandiyaning “Grilos”, Germaniyaning “Buxer” kompaniyalari bilan hamkorlikda O‘zbekistonda zamonaviy energiya tejamkor muzlatkichli omborlar qurish hamda qayta ishlash korxonalarini eng zamonaviy texnologiya va asbob-uskunalar bilan

jihozlash bo‘yicha shartnomalar imzolangani diqqatga sazovordir.

“Green Week — 2024” xalqaro ko‘rgazmasi mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi sohasida kelgusida qilinishi kerak bo‘lgan ishlarni belgilab olish, tajriba almashish uchun qulay platformadir. Shuningdek, tizimga energiyatejamkor, innovatsion texnologiyalar jalb qilish, raqamlashtirish jarayonini jadallashtirishga ham ko‘mak beradigan motivatsion maydon hisoblanadi.

Milliy brend ostidagi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni ko‘paytirishda ilm-fan yutuqlari, innovatsion yondashuvlar hamda iqlim o‘zgarishiga chidamli urug‘ yetishtirish eksport salohiyatimizni yanada oshirishda qo‘l keladi.

Shu o‘rinda aytib o‘tish kerakki, joriy yilning 3-fevral kuni Prezidentimiz mevasabzavotchilik va oziq-ovqat tarmog‘ini rivojlantirish masalalari bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazdi. Unda o‘tgan yili mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida eksport qariyb 2 milliard dollarni tashkil etgani e‘tirof etilishi barobarida mavjud salohiyat bundan ancha yuqori ekani qayd etildi. Buning uchun sohaga ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash, yangi hamkor va bozorlarni topish katta ahamiyat kasb etadi. An‘anaviy tus olgan “Yashil haftalik” tadbirlari bunda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Bahrom ELMIRZAYEV,
*Qishloq xo‘jaligi vazirligining
Agrosanoatni raqamlashtirish
markazi mutaxassisi*

Huquqiy aksiya

HUJJATLARINGIZ joyidami?

Keyingi paytlarda “89 yoshli otaxonga tug‘ilganlik haqida guvohnoma berildi” yoki 114 yoshli onaxonga shunga o‘xshash hujjat topshirildi kabi xabarlariga ko‘p duch kelyapmiz. Tabiiyki, bu mazmundagi xabarlar ko‘pchilikda qiziqish uyg‘otish bilan birga, bunday hujjatlar berilishi shuncha uzoq vaqt kechikishi sabablariga doir savollarni ham yuzaga keltiradi.

O‘z navbatida, javoblar ikki asosiy jihatga ishora beradi. Birinchisi, fuqarolarning huquqiy savodxonligi yetarli darajada emasligi hamda moddiy tomondan imkonsizligi bilan bog‘liq vaziyat tufayli bunday holatlar yillar davomida ko‘payib borgan. Ikkinchisi, ayni yo‘nalishga mas‘ul tashkilot faoliyatida bu kabi holatlarning oldini olishga qaratilgan mexanizm bo‘lmagan ham vaqt o‘tgan sayin muammo ko‘lami kengayib borishiga zamin yaratgan.

Ayni masalaning eng ahamiyatli jihati shundaki, ancha yillar oldin yo‘l qo‘yilgan xatolar kechikib bo‘lsa-da to‘g‘rilanyapti, muammo hal etilyapti. Demak, davlatimiz rahbarining qat‘iy talabi bilan barcha darajadagi rahbarlarning eng quyi pog‘ona — mahallalarga tushib, aholi murojaatlarini bevosita tinglayotgani, umuman, xalq bilan muloqotning ta‘sirchan mexanizmlari yo‘lga qo‘yilgani yaxshi samara bermog‘da.

Adliya vazirligi tashabbusi bilan o‘tkazilayotgan “Hech bir shaxs hujjatsiz qolmaydi” huquqiy aksiyasi ham bunga yorqin misol bo‘ladi. Xususan, shu yil 20-yanvarda boshlangan aksiya doirasida ayni kungacha yetti mingdan ortiq shaxs tegishli hujjatlar bilan ta‘minlandi.

Mazkur huquqiy aksiya doirasida tug‘ilishni qayd etilmaganligi oqibatida shaxsini tasdiqlovchi hujjatlariga ega bo‘lmagan, yaqin qarindoshining o‘limi qayd etilmagan, tug‘ilganligi yoki yaqin qarindoshining



o‘limi haqidagi tibbiy ma‘lumotnomaga ega bo‘lmaganligi sababli yuridik faktni belgilash yuzasidan sudlarga murojaat qilishi lozim bo‘lgan, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishda yoki qayta ro‘yxatidan o‘tkazishda muammolarga duch kelayotgan shaxslarga huquqiy yordam ko‘rsatish belgilangan.

Ayni paytda yurtimizning barcha hududlarida maxsus shtablar tashkil qilingan. Shtab a‘zolari tomonidan o‘zlariga birkirilgan barcha mahallalarda tegishli hujjatlariga ega bo‘lmagan shaxslar xatlovdan o‘tkazilib, ro‘yxat shakllantirilmoqda.

Bu jarayonda tegishli hujjati yo‘q shaxslar shtab a‘zolari tomonidan mahallalarda uyma-uy yurib aniqlanadi. Bunday fuqarolar ro‘yxatga olinadi va malakali mutaxassislar

tomonidan holat o‘rganib chiqilgach, tegishli tartibda hujjatlari rasmiylashtirib beriladi.

Shu bilan birga, joylarda sayyor qabullar tashkil etilib, shunga doir muammosi bor yurtdoshlarimizning murojaatlari qabul qilinmoqda.

— Dastlabki 15 kun davomida 2 mingga yaqin mahallada xatlov o‘tkazilib, 10 ming 324 nafar shaxs tegishli hujjatlariga ega emasligi aniqlandi, — deydi Adliya vazirligi matbuot xizmati rahbari Sevara O‘rinboyeva. — O‘rganishlar davomida aniqlanishicha, buning asosiy sabablaridan biri yurtdoshlarimizning o‘z vaqtda tegishli tashkilotlarga murojaat qilmaganligi. Shu bilan birga, ko‘p hollarda fuqarolarning beparvoqligi ham bunga sabab bo‘lmoqda. Yana bir sababi esa, ancha vaqtdan buyon uyma-uy yurib o‘rganishga asoslangan bunday aksiya o‘tkazilmagan. Umuman olganda, ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida 7 ming 701 nafar shaxsga tegishli hujjatlar rasmiylashtirib berildi.

Mutaxassisning qo‘shimcha qilishicha, uy sharoitida tibbiy yordamsiz farzandli bo‘lish bilan bog‘liq ba‘zi vaziyatlarda ham hujjat olish masalasida hech kimga murojaat qilmaslik holati ko‘p uchraydi. E‘tiborli qilamiz, 2023-yil iyul oyidan boshlab tibbiyot muassasalarining o‘zida tug‘ilishni qayd etish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Bu holat tug‘ilishni qayd etmasdan qolib ketish xavfini ancha kamaytiradi.

Aksiya doirasida qariyb 13 ming nafar shaxsga elektron raqamli imzo berish, “Mobile-ID” dan ro‘yxatdan o‘tkazish, kadastr pasportini shakllantirish va boshqa turdagi davlat xizmatlari sayyor shaklda ko‘rsatildi.

Mazkur aksiya 2024-yil 20-martga qadar davom etadi.

Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

O‘ZBEKISTON 2030 STRATEGIYASI



Jamshid SHARIPOV,
“Taraqqiyot strategiyasi” markazi bo‘lim boshlig‘i

Shuning uchun bugungi zamonaviy dunyoda ilm-fan, yuqori texnologiya va innovatsiyalar mamlakatlarning rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qilayotir. Bu borada ko‘zlangan yuksak natijalarga erishishda inson kapitalining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Zero, dunyo tajribasi va amaliyoti ko‘rsatmoqdaki, aynan inson kapitaliga investitsiya yo‘naltirishni ustuvor vazifa sifatida tanlagan davlatlar yuksak taraqqiyotga erishyapti.

Bugun O‘zbekistonda ham inson kapitali rivoji ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishi sifatida namoyon bo‘lmoqda. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirishning asosiy g‘oyalardan biri ham inson kapitalini rivojlantirish bo‘lib, bu aholi-ning ehtiyojlariga va xalqaro standartlarga to‘liq mos keladigan ta‘lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimlarini yaratishni nazarda tutadi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasining 2023-yilda mazkur yo‘nalish bo‘yicha belgilangan tadbirlari ijrosi tahlil qilinganda yurtimizda bu borada muhim qadamlar tashlanganini ko‘rish mumkin.

Jumladan, davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan xususiy ta‘lim sektori vakillari

IQTIDORSIZ ODAM BO‘LMAYDI iqtidorlarni shakllantirish va yo‘naltirish zarur

Turli davlat va jamiyatlarda inson salohiyatining yuzaga chiqish samaradorligi turlicha. Ya‘ni qayerdagi bunga yetarlicha sharoit yaratilgan bo‘lsa, o‘sha joyda qobiliyatni to‘g‘ri yo‘naltirish, undan samarali foydalanish ko‘rsatkichlari yuqori.

uchun bank kreditlari bo‘yicha binolarni garovga qo‘yish huquqi berilishi va ko‘p qavatli uylarda yoki shaxsiy uy-joylarda maktabgacha ta‘lim tashkilotlarini tashkil etish imkoniyati yaratilishi maktabgacha ta‘lim tashkilotlari soni qariyb 34 mingga, 3-7 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta‘lim bilan qamrab olish darajasi 74 foizga yetishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi.

Ta‘lim sohasidagi muhim jihatlardan yana biri umumiy o‘rta ta‘limni rivojlantirish

uchun ajratilganini keltirish mumkin. Bu esa kelajakda ta‘lim xizmatlari xilma-xilligi va ularning sifatini oshirishga ko‘maklashadi. Shu bilan birga, xususiy ta‘lim muassasalarida zamonaviy o‘qitish usullari, texnologiyalar va dasturlar joriy etiladi. Bu esa o‘quvchilarning ta‘lim olish tajribasini yanada boyitadi va ularni kelajakdagi muvaffaqiyatlarga tayyorlaydi.

Yoshlarning intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va yanada oshirish maqsadida xalqaro imtihonlarda yuqori



milliard so‘mlik xarajatlari qoplab berildi. Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida 800 turdagi tanlov, musobaqa va o‘yinlar o‘tkazildi.

Yigit-qizlarga zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni o‘rgatish hamda ularning yuqori daromadli sohalarda qulay ishlashi uchun sharoit yaratish maqsadida https://uzbekcoders.uz platformasida AQSH-niing Coursera kompaniyasi kurslari tashkil etildi. Natijada 215 mingdan ortiq yosh mazkur kurslarda qamrab olindi.

Sport bilan shug‘ullanuvchi yoshlar sonini oshirish maqsadida “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida mahallalarda yashayotgan yoshlar o‘rtasida sportning 11 turi bo‘yicha besh bosqichli: mahalla — sektor — tuman — viloyat — respublika darajasida sport musobaqalari tashkil etildi.

Global innovatsion indeksdagi past ko‘rsatkichlar bo‘yicha aniq chora-tadbirlar rejasini tasdiqlanishi mamlakatning innovatsion

salohiyatini oshirishga bo‘lgan intilishini ko‘rsatmoqda. 2023-yilgi Global innovatsion indeks reytingida O‘zbekiston 132 mamlakat orasida 82-o‘rinni saqlab qoldi.

Millatning salomatligi farovonlikning muhim asosidir. Tibbiyotga investitsiya kiritish, zamonaviy tibbiy markazlarni tashkil etish va sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish sog‘lom jamiyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu, o‘z navbatida, fuqarolarning jismonan va ruhan farovonligiga g‘amxo‘rlik qilishga sharoit yaratib beradi.

Strategiya doirasida 2023-yilda sog‘liqni saqlash sohasida ham sezilarli ishlar qilindi. Xususan, onalar va bolalar salomatligini mustahkamlash hamda kasalliklarning oldini olish maqsadida reproduktiv yoshdagi 8,6 million ayol tibbiy ko‘rikdan o‘tkazildi. Onalik va bolalikni muhofazalash, sog‘lom farzand dunyoga kelishini ta‘minlash maqsadida homilador va emizikli ayollarga

yod preparatlari tarqatildi. Tug‘uruq yoshidagi ayollar sog‘lig‘ini mustahkamlash va kasalliklarning oldini olish maqsadida temir preparatlari va foliy kislotasi berildi.

Bolalar salomatligini muhofazalash bo‘yicha ham ana shunday muhim chora-tadbirlar hayotga tatbiq etildi. Xususan, 6-23 oylik 416 ming 655 bola birinchi bosqichda, 175 ming 592 bola ikkinchi bosqichda mikroelement kukuni, 3-15 yoshdagi 8,4 million bola yod preparatlari bilan ta‘minlandi. 2-10 yoshdagi 6,3 million bolaga gelmentlarga qarshi dori-darmon tarqatildi.

Ijtimoiy himoyani mahalla darajasida tashkil etish, ijtimoiy xizmat va yordamni tizimli asosida ko‘rsatish, aholi og‘ir ijtimoiy ahvolda tushib qolishining oldini olish borasida ham izchil ish olib borildi. Xususan, ijtimoiy himoyaning manzilliligi va samaradorligini oshirish hamda aholining ko‘makka muhtoj qatlamni ijtimoiylashuvini ta‘minlash maqsadida joylarda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari tomonidan ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ko‘rsatishning yangi tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Ayollarning mavjud muammolarini o‘rganish va ularga tizimli ravishda yechim topish maqsadida “Xotin-qizlar.uz” yagona milliy interaktiv platformasi ishga tushirildi. U mavjud muammolar bo‘yicha onlayn murojaatlar qabul qilish, tegishli davlat idoralariga jo‘natish va ijrosini nazorat qilish, zo‘ravonlik va tazyiqdan himoyalaniish borasida onlayn psixologik maslahatlar berib borish, ayollarning ishga joylashishiga ko‘maklashishda yaxshi samara bermog‘da.

2023-yil yakuniga ko‘ra, ushbu platforma orqali aniqlangan muammolarning aksariyati o‘z yechimini topdi.

Bir so‘z bilan aytganda, bugungi kunda yurtimizda inson kapitalini rivojlantirishda muhim qadamlar tashlandi. Bu esa O‘zbekistonning barqaror iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

2024-yil 6-fevral, 26-son

Tafakkur



Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Jilovdor mafkura yoki
ajnabiylar — sening dushmaning

Maktabimiz Eski shaharning qoq markazi — Hazrati Imom (Xastimom)dagi hozirgi ikki minorali masjid o‘rnida edi (O‘sha davrdagi Chkalov nomli 23-o‘rta maktab, 2007-yil buzib tashlangan). Yonimizda Baroqxon madrasasi hamda o‘sha paytdagi O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy idorasi joylashgan. Ma‘lumki, Hazrati Imom — Toshkentning eng asosiy diqqatga sazovor joylaridan biri. Majmua Toshkent imomi, olim, Qur‘on va hadis bilimdoni, Toshkentda islomning ilk targ‘ibotchilaridan biri, shoir va hunarmand Abu Bakir ibn Ismoil Al-Qaffol Ash-Shoshiy (Hazrati Imom) qabri atrofida bunyod etilgan.

Tarixiy manbalarga ko‘ra, u qulflar va kalitlarni tayyorlash bo‘yicha usta ham bo‘lgan, shu sababli “Qaffol” (qulfchi) laqabini olgan, 72 tilni bilgan va Tavrotni arab tiliga tarjima qilgan. Abu Bakr Qaffol Shoshiy 976-yilda 73 yoshida vafot etadi va u shu kungacha dunyoning aksariyat musulmonlari tomonidan ziyorat qilinadigan maqbarada dafn etiladi.

Ushbu majmuaning me‘moriy elementlari turli davrlarda barpo etilgan. “Qaffol Shoshiy” maqbarasi, Baroqxon madrasasi va “Mo‘yi Muborak” madrasasi XVI asrda qurilgan. “Nomozgoh” masjidi XVIII asrda va “Tilla Shayx” jome masjidi XX asrda bunyod bo‘lgan. Shu bois, bu yerdan xorijiy sayyohlarning qadami uzilmaydi.

Xullas, maktabning 1-sinfiga qadam qo‘ygan dastlabki vaqtlardan qo‘qtuvchilarimiz bizga bir gapni uqtirib kelgan: “Chet ellik sayyohlar bilan gaplashma, ular kapitalistlar, yaqiniga yo‘lama. Qo‘lingga saqich yoki biror shirinlik tutqazib, cho‘zilgan qo‘lingni suratga oladi va o‘z yurtiga borib, SSSRda bolalar tilamchi, gadoy deb o‘z matbuotida e‘lon qiladi. Ajnabiylar — sening dushmaning”.

Davlatimiz rahbari aytganidek, “Bugungi O‘zbekiston — kechagi O‘zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas”. Bizga endi jamiyatni avval barbod qilib, keyin qudratini ko‘z-ko‘z qiladigan “aqlli” siyosatchilarning nag‘masi kerak emas. Bizga bugun o‘z iqtidori, bilimi va shijoati bilan Vatan sha’ni, shuhrati, shavkatini yuksaklarga ko‘taradigan ulfatlar, shahzodalar, maryamlar kerak va shukrki, ular juda ko‘p.

Xalqimizning ulug‘vor qudrati jo‘sh urgan hozirgi zamonda O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish — Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo‘ladi. Chunki bugungi O‘zbekiston — kechagi O‘zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

“SENI BILMASLARGA
RAHMIM KELADI”

yoxud dag‘al so‘zli — dushman qilur do‘stini

Bizga mehmonni dushman, g‘alamis, buzuq niyatli qilib ko‘rsatish-da, lekin turli-turfa liboslarda har kuni tashrif buyuradigan xorijlik sayyohlar bilan muloqot qilishga o‘ch edik. Allambalo ta‘mli saqichlarining mazasini ham tatib ko‘rganamiz. Chunki bizning xalqimiz, odamlarimizda ulardagi kabi rang-barang kiyimlar, ilg‘or texnika va anjomlar, ko‘rinishyoq ishtaba o‘chadigan saqich yoki yeguliklar yo‘q edi.

Men bir oz til bilganim, muloqotga kirishimli ekanim bois, hadik bo‘lsa-da, sayyohlar bilan muloqotdan qochmasdim. Bir kuni, 80-yillarning boshi — uchinchi yo‘to‘rtinchi sinfda o‘qir edim, maktabimiz direktori o‘rinbosari darsimizga kirib keldi. 40 chog‘li sinfdoshlarim orasidan meni va yana ikki o‘quvchini turg‘azib, rosa dashnom berdi, izza qildi. Aybmiz — maktabga kirayotib sayyohlarga “assalomu alaykum, hello” deb salom berganimizni ko‘rib qolgan ekan. “Ajnabiylar — mening dushmanim, ularga qaytib salom bermayman”, degan mazmunda har birimizdan tilxat olingandi o‘shanda. Bizning avlod nega sal odamoviroq degan gumondagilar uchun javob bu.

Yevropada sayqal topgan milliy
g‘urur yoki hali
imkon bor

Hozirgi globallashuv, jahon siyosiy maydonidagi ziddiyatlar, axborot xurujlari davri har birimizni hushyor, bosiq, sermulo hazali bo‘lishga undamoqda. Bunday vaziyatda insonning ma‘naviy qiyofasi birinchi planga chiqadi, hayotda kitobning o‘mi juda yuksak ekan bo‘y ko‘rsatadi. Texnologiyalar tufayli mutolaa bo‘lgan qiziqish bir oz susaygani bor gap. Lekin kitob o‘qish orqali inson hayot kechirishni, ma‘naviyatli, ma‘rifatli bo‘lishni o‘rganadi.

Ulfat Abjabborov Uber Technologies Inc kompaniyasining Daniyadagi vakolatxonasi bilan uzoq muddatli shartnomaga erishib, turmush o‘rtog‘i Shahzoda va farzandi Maryamxon bilan

O‘rxus shahrida istiqomat qiladi. Endi besh yoshga to‘ladigan qizini mahalliy bolalar bog‘chasiga bergan. Yaqinda ta‘til olib, oilasi bilan Toshkentga keldi. Jajji Maryamxonning egnida milliy atlas, boshida o‘zbek qizlari do‘ppisi bilan ko‘chalarda paydo bo‘lishini ko‘rgan kishi borki, tabassum va mehr bilan nazar tashlar edi.

Bir yildan oshdi, qizimni bog‘chaga berdik. U yerga o‘zga yurtlardan bizga o‘xshab shartnoma asosida ishlagani kelgan turli millatga mansub oilalarning farzandlari keladi. Maryamni bog‘chaga yetaklab olib borgan ilk kunimiz bizga bolaga mos milliy kiyimlar, o‘zbek etak kitoblari va O‘zbekiston bayrog‘ini ham keltirib berishimizni aytishdi. Aytishdi-ko‘yishdi, deb o‘yladik. Yo‘q, ertasi kuni talab qilishdi. Ota-onamga jo‘ng‘iroq qildim, biror o‘n kunda Toshkentdan jo‘natma yetib keldi, — deydi Ulfat.

Ikki yildan buyon Yevropa havosini olgan qizaloqning Toshkent ko‘chalarida milliylikka burkanib yurishining o‘ziga yarasha sabablari bor,

albat. Gap shundaki, bog‘chada bolalar uchun navbatma-navbat kim qaysi yurtdan, millatdan bo‘lsa, o‘sha mamlakat milliy kuni tadbirlari uyushtirilgan ekan. Unda bola o‘zining milliy kiyimida, davlatining bayrog‘i oldida, tarbiyachilar yordamida o‘z Vatani, yurti haqida hikoya qilib berishi, xalq ertaklari va she‘rlardan namunalar o‘qishi kerak.

Bir kuni bog‘chada O‘zbekiston kuniga navbat keldi. Maryam ham milliy liboslarda bordi. Uni ko‘rib, hech kim hayratini yashira olmadi — bolalar tugul, bog‘cha tarbiyachilari ham qizaloqning egnidagi liboslarga mahliyo bo‘lib qoldi, shu kuni u hammaning diqqat markazida bo‘ldi. O‘shandan buyon egnidan milliy liboslarimizni qo‘ymas ekan. Ota-onasi ta‘tildan qaytishda o‘zlari bilan yana milliy kiyim, so‘zana, kulochilik namunalaridan olib ketmoqchi.

Maryam o‘zbekchadan tashqari, ingliz va rus tillarida ham bemalol gaplasha oladi, — deydi

Shahzoda. — O‘sha tadbirga jiddiy hozirlik ko‘rdik. O‘zbekiston, o‘zbeklar, milliylik, vatanparvarlik haqida ingliz tilida sodda matn tayyorladik. Bir-ikki ertaklarning mazmunini ingliz tiliga o‘girdik. O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning vatan haqidagi she‘ridan quyidagi satrlarni o‘zbekcha va tarjima shaklini yoddadik.

Sen bilan o‘tgan har kun bayram — bazon,
Sensiz bir on qolsan vahim keladi.
Seni bilganlarga qilaman ta‘zim,
Seni bilmaslarga rahmim keladi.

Maryam tadbirida bularning hammasini burro-burro aytib berdi. Ayniqsa, she‘ming inglizcha ta‘rifidan keyin ota-onalar tarbiyachilar qarsak chalib yuborgandi o‘shanda.

Ulfat va Shahzodaning gaplarini eshitib, Maryamxonning xatti-harakatlarini kuzatib, bir narsani o‘ylab qoldim. Demak, hozir ko‘p kuzatayotganimiz — o‘z milliy tilida muloqot qilishni, milliy liboslarni egniga ilishni ep bilmaydigan ayrim yoshlarimizning ongi va tafakkurini o‘zgartirishga hali imkon bor ekan.

Duolar ijobati yoki to‘kinlik
shukronasi

Yoshi ulug‘ avlod yaxshi biladi: o‘tgan asrning 80-yillari oxiri va 90-yillari boshida ahvolimiz, turmushimiz ancha og‘ir edi. Sobiq sho‘rolar davlati parokanda bo‘lgan, ittifoq tarkibidagi respublikalar o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy zanjirlar uzilib ketgan og‘ir paytlar edi. Do‘konlarda xalq ehtiyoji uchun eng zarur bo‘lgan sakkiz nomdagi mahsulot faqat maxsus berilgan talon asosida sotilardi. Boshqa do‘konlardan bu tovarlarni xarid qilib bo‘lmasdi. Do‘konlar peshtaxtalari bo‘m-bo‘sh, odamlar kiyinishi ham havas qilgudek emasdi.

Uy-joylar bir ahvolda, ta‘mir uchun qurilish mollari qahat, avtomobili yoki zamonaviyroq maishiy texnikasi borlar barmoq bilan sanarli. Ust-boshimizda yo‘kamiz, yo‘ otimizga kichik kelib qolgan kiyim, poyabzal.

1991-yil kuzda katta singlimni turmushga berdik. To‘ydan avval otamning qay alfozda zir yugurgani hamon ko‘z oldimda: kelin-kuyovlarga sarpo, yosh oilaga mebel olish kerak, ammo uni otligga ham topolmayisiz. Asosiysi, bir amallab jamg‘arilgan pul bor, ammo tovar yo‘q. Tanish-bilish orqali, yalinib-yolvorib, “shapka” sini berib, Olmaliq shahridagi qaysidir do‘kondan ming azobda o‘zimizning mahalliy mebelni olib kelganmiz (keyin sifati xaminqadarligidan 3-4 yilda yaroqsiz xolga kelib qolgan ekan).

Otamning ruhiy ahvolini ko‘rgan buvim o‘shanda duo qilgan edi:

— Yaratgan bandasini o‘zi qo‘llasin, yurtimizda to‘kinlik bo‘lsin! Bugungi kam-ko‘stlarini bolalarimizning o‘zi to‘ldirsin!

Aslida, nuroniy otaxon-onaxonlarimiz doim shu mazmunda yuzlariga fотиha tortadi. Shukr, bugun xalqimiz hayotida farovonlik, hamma narsamiz bor, bozor va do‘konlarimiz peshtaxtalari turli-tuman tovarlar bilan to‘lib toshgan. To‘ylarimizning, qurayotgan uy-larimizning, minayotgan avtomobillarimizning hashamatini ta‘riflashga so‘z o‘z o‘z. Demak, xalqimiz yaxshi zamonlarga yetib kelibdi, bardavom bo‘lsin!

Bir necha yil avval menga ham qiz uzatish baxti nasib etdi. Xuddi singlimni turmushga berganimiz paytidek rosa g‘ynaldim. Faqat sarpo va mebelning xili ko‘pligi hamda sifatiyning yuqoriligidan qay birini tanlash masalasi qiyndi rosa.

Ota o‘tirgan uy yoki ikki zulfi
darvozalar

Ota-onaning vazifasi farzandini dunyoga keltirishdangina iborat emas. Ular o‘z farzandlarini aqlli, es-hushli, jismonan sog‘lom, diyonatli, e‘tiqodli, jamiyat va Vatanga foydasi tegadigan insonlar qilib tarbiyalash haqida qayg‘urishi kerak. Sharqona lutf, sharqona odob va andisha dunyo ahlining aqlini shoshirib, sharqliklarga nisbatan hurmatini oshirib kelgan. Bu borada o‘zbekona muomalaning o‘mi ham bo‘lakcha. Sa‘diy yozadi:

“Shirin so‘zli shilgay dushman po‘stini,
Dag‘al so‘zli dushman qilur do‘stini”.

Shu kunlarda ayrim xorij korchalonlarining mamlakatimiz va xalqimiz sha‘niga, milliy tariximizga nisbatan bildirayotgan nojo‘ya va kaltabin mulohazalari, bir-biridan dag‘al so‘zlari bot-bot quloqga chalibni qolyapti. To‘g‘ri, bu ular mansub davlatning rasmiy qarashiga mos emasligi aniq, ammo ne bo‘lganda ham buni munosabatlariga raxna solishga urinish, deb baholash mumkin. Sharqona lutf, sharqona odob-andisha bizga xos deb, indamay ketaverishni bu yerda yaramaydi.

Ulariga javoban o‘zligimizni chuqurroq anglashimiz, yoshlar shuurida vatanparvarlik tuyg‘ularini kuchaytirishimiz lozim. Toki mavjud mafkuraviy va ma‘naviy xurujlarning maqsad-mohiyatini o‘z vaqtida anglab oladigan, ularga qarshi o‘z fikri va mustaqil dunyoqarashiga ega bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalash oliy maqsadga aylansin.

Davlatimiz rahbari aytganidek, “Bugungi O‘zbekiston — kechagi O‘zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas”. Bizga endi jamiyatni avval barbod qilib, keyin qudratini ko‘z-ko‘z qiladigan “aqlli” siyosatchilarning nag‘masi kerak emas. Bizga bugun o‘z iqtidori, bilimi va shijoati bilan Vatan sha‘ni, shuhrati, shavkatini yuksaklarga ko‘taradigan ulfatlar, shahzodalar, maryamlar kerak va shukrki, ular juda ko‘p. Hozir bizda davlatimizning “Inson qadri uchun” tamoyili asosida olib borayotgan siyosatini qo‘llab-quvvatlayotgan, unga ko‘maklashayotgan jahon hamjamiyatining e‘tibori bor, xayrixohligi bor.

Zero, biz “O‘teng o‘tirgan uyniing tomiga ham chiqma”, degan xalqimiz. Xonadonining darvozasiga ikkita (katta va kichik) zulf ilingan, mehmon o‘sha zulfning qay birini taqatlashidan ayol yoki erkak ekanini bilib, uning istiqboliga peshvoz chiqadigan millatimiz.

Milliy kontent

AXBOROT XURUJLARIGA MUNOSIB QALQON



Toshqul BEKNAZAROV,
faxriy jurnalist

Bu holatning eng yomon tomoni, taqdiring birovnig qo‘lida, erking o‘zining emas paytda millatchining haqoratiga munosib javob bera olmasligidir. Lekin ko‘pincha oddiy odamlar o‘rtasidagi bunday ayirmachilikka, “oddiy maishiy masala” sifatida baho berilib, millatchilik darajasiga ko‘tarmaslikka harakat qilinadi.

To‘g‘ri, har qanday mamlakatda boshqa millatni kamsitishga moyil toifa odamlar uchraydi. Ular tomonidan internet tamog‘i orqali aytilgan

Mustaqillik davrida tug‘ilib voyaga yetgan, xorijda migrant bo‘lmagan yoshlarimiz millatchilik tajovuziga deyarli duch kelmagan. Dunyodagi barcha qurolli, qurolsiz to‘qnashuvlarning kelib chiqishiga sabab bo‘layotgan millatchilikning nechog‘liq yomon haqoratligini sobiq ittifoq davrida harbiy xizmatni O‘zbekistondan tashqarida o‘tagan katta avlod vakillari, bugungi mehnat migrantlari yaxshi biladi, albatta.

gap, endi bu “oddiy maishiy masala” emas, jiddiy kamsitish, katta ig‘vogarlik.

Ijtimoiy tarmoqda o‘zini tarixchi qilib ko‘rsatgan chet ellik ayrim millatchi toifalar vakilining “1917-yilgacha qozoq, o‘zbek va ozarbayjon degan millatlar bo‘lmagan”, deb aljirashi o‘zga millatlarni kamsitishdan, ig‘vogarlikdan boshqa narsa emas. Ko‘pchilikning g‘azabini keltirgani sababi ham shu — u bizning tariximiz, milliy g‘ururimiz, mustaqilligimiz, erkimizni haqoratlad. Bu ig‘voning maqsadi nima ekan ancha keng muhokama qilindi. Hamma bo‘lmasa-da, ko‘pchilik bu aljirashlarning zamirida qanday niyat yashirin ekanini, O‘zbekistonning tez rivojlanishi ulami jiddiy tashvishga solayotganini bilib turibdi. Shu bois, men bu voqealarning tafsilotiga to‘xtalmoqchi emasman, aksincha, shu kabi axborot tahdidlariga qarshi ayrim mulohazalarni bildirmoqchiman.

Bunday xurujlar bugun bo‘layotgani yo‘q. Demak, bunday tashqi targ‘ibot xurujlari doimiy bor ekan, unga qarshi kurash vositalari ham doimiy ishlaydi kerak. Yana takror aytishga to‘g‘ri keladi, g‘oyaga qarshi g‘oya bilan kurashish shart. Bu kurash qachonki unga nisbatan tahdidlar yuz bergandagina himoya uchun emas, doimiy bo‘lishi zarur. Ularning xurujlariga javob berish jangda dushman hujumiga qarshi mudofaa

usuli kabi bo‘lmashligi kerak. Himoyalash — g‘alaba uchun kurash emas. Vatan va millat bor ekan, mustaqillik, ozodlik uchun kurash ham to‘xtamaydi.

Prezidentimiz joriy yil 12-yanvar kuni Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida axborot xavfsizligi masalalariga to‘xtalib, O‘zbekiston axborot makonida milliy kontent yaratishdagi tashabbusni ilgari surganida, menimcha, masalaning shu jihatini, ya‘ni bu g‘oyaviy kurashni doimiy va samarali yo‘lga qo‘yishni nazarda tutdi.

Bugungi globallashgan axborot makonida milliy kontent yaratish mamlakatimiz milliy manfaatlarini himoya qilishda eng to‘g‘ri va samarali usul. Bu tashabbusni hamma qo‘llayotir. Biroq uni bir ovozdan ma‘qullayotganlar orasida yana eski zamondan qolgan “xorijiy davlatlar propagandasiga xizmat qilayotgan barcha radio-televizion kanallari hamda internetdagi saytlar”ni cheklashga moyil ovozlari eshitilayotgani achinarli. Chunki “nimadir qilindimi, qilindi” qabilidagi bu yondashuv bilan muammoni hal qilib bo‘lmaydi.

Birinchidan, hozirgi axborot asrida hech bir davlat o‘z hududini global axborotdan himoya qilolmaydi. Qolaversa, mamlakatimizda so‘z, matbuot erkinligini mustahkam qaror toptirish uchun ochiqlik siyosati olib borilayotgan paytda

biror-bir tashqi axborot manbasini cheklash to‘g‘ri qaror bo‘lmaydi, deb o‘ylayman. Milliy kontent yaratishdan maqsad esa aholining axborot olish imkoniyatini cheklash emas, aksincha, kengaytirishdir.

Tanlash imkoniyati axborot hajmining qanchalik ko‘pligidan, xilma-xilligidan kelib chiqiladi. Odamlarda xorijdan tarqatilayotgan axborotga hamon qiziqish ko‘pligi, demak, ularda shu qiziqishning hajmi bilan ham, xilma-xilligi bilan ham qondiradigan nimadir borligida. Odamzodda o‘zi bilmagan, o‘zida yo‘q narsalarga qiziqish har doim kuchli bo‘lib kelgan.

Bizga g‘arazli maqsadda vaqti-vaqti bilan axborot hujumi uyushtirayotganlar kishilardagi axborotga bo‘lgan ana shu qiziqishni yaxshi biladi. Shundayligini o‘zimiz ham bilamiz. Demak, milliy axborot makonimizda katta bo‘shliq bor. Bu chetdan ham aniq ko‘rinib turgani uchun xurujlar bo‘lyapti. Axborotdagi bo‘shliq — ongddagi, dunyoqarashdagi bo‘shliqning ifodasi. Bu bo‘shliq o‘zimizdan to‘ldirilmasa, chetdan to‘ldiriladi, to‘ldirilayotir ham. Agar shu bo‘shliq bo‘lmaganida keyingi paytda bo‘lgan “O‘zbekistonni bosib olish”, “o‘zbek degan boshlatning tarixda bo‘lmaganligi” haqidagi va



Hakim Yo‘ldoshev olgan suratlar.

2024-yil 6-fevral, 26-son



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

Dolzarb mavzu

SHOLICHILIK
ISTIQBOLLARIGLOBAL IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDAGI MUAMMOLAR,
ILM-FAN VA INNOVATSIYAGA ASOSLANGAN YECHIMLAR

G'iyosjon RAHIMOV,
*Irrigatsiya va suv muammolari
ilmiy-tadqiqot instituti bosh
ilmiy xodimi, qishloq xo'jaligi
fanlari doktori, professor*

Boshlanishi 1-betda

Yer resurslaridan samarali foydalanib, suv va boshqa manbalarni tejaydigan, pishish davrini tezlashtirib, bir yilda ikki marta hosil olish uchun qo'llanadigan sholini ko'chat qilib ekish usuli sinalgan texnologiyadir. Ushbu texnologiya eng ko'p suv talab qiladigan sholi ekinini yetishtirishda tejamkor va samarali usul hisoblanadi. Hozir dunyo bo'yicha sholi maydonining 90 foizida ko'chat qilib ekish texnologiyasi qo'llanmoqda.

Suv tejamkorligi —
muhim mezon

Guruch yetishtirish uchun ajratilgan yerdan samarali foydalanish irrigatsiya va melioratsiya sohasidagi ishlarning bajarilishiga bevosita bog'liq. Sholipoyalarni har yili joriy va kapital remont qilish, ariq-zovurlarni tozalash, nasos stansiyalari hamda gidrotekhnika inshootlarning mavsum davomida uzluksiz ishlashini ta'minlash zarur. Sholi ekish texnologiyasiga rioya qilmay, faqat foyda olishni ko'zlagan shaxslarning xatosi tufayli yer osti gurunt suvi muayyan darajada ko'tarilib, yerning sho'rlanishiga olib kelmoqda. Sholipoyalarda suv sathining vegetatsiya davomida qay darajada bo'lishi uchun zarur tavsiyalar berilgan. Sholi ekiladigan yerda, albatta, kollektor-zovur sistemasi qurilgan bo'lishi kerak. Bunday sharoit bo'lmasa, sholi maydonida yer osti gurunt suvi ko'tarilib, sifatsiz, kam hosil olinishi bilan birga, yerning sho'rlanishi, qayta sho'rlanish, botqoqlanish jarayoni yuzaga keladi. Shunday holatlarga yo'l qo'yilishi natijasida yer yaroqsiz holga kelishi bilan birga davlat byudjetidan salmoqli mablag' behuda sarflanadi.

Hozir bunday kamchiliklarning oldini olish uchun imkoniyat mavjud. Qishloq xo'jaligi ekinlari, jumladan, sholi yetishtirishda yerdan foydalanish tizimini ko'rib chiqib, berilgan tavsiyalarning belgilangan tartibda bajarilishini doimiy nazorat qilish asosida undan to'g'ri foydalanish mumkin. Buning uchun, birinchidan, lazerli uskunalar yordamida nazorat qilinadigan texnikalar orqali yerni tekislash lozim. Lazerli qurilmalar yemi tekislash ishlari sifatini tubdan yaxshilab, texnologik foydali ish koeffitsiyentini oshiradi. Jarayonda geodeziya ishi 80 foiz kamayib, agregatlar ish unumi 20-30 foiz oshadi. Yer 3-5 santimetr gacha tekislanib (an'anaviy usulda 15-25 santimetr va undan ortiq), hosildorlik 40 foizgacha ortadi, suv sarfi

esa 50 foizgacha tejalar. Endi sholi ekishdan oldin maydonni 100 foiz lazerli uskunalar yordamida tekislashni kun tartibiga kiritish va nazorat qilish kerak. Yer ushbu texnologiya bilan tekislanganda 3-4 yil davomida foydali ish koeffitsiyentini yuqori bo'lib, suv va boshqa resurslar tejamkorligi kafolatlanadi.

Ikkinchidan, hozirgi suv taqchilligi sharoitida klaster, fermer, dehqon va tomorqa xo'jaliklari yerida sholi ekishdan boshlab, pishib yetilguncha sarflanayotgan suv miqdorini aniqlab, hisobotini yuritish maqsadga muvofiq. Bu fermerlar arig'ining bosh qismida, asosiy "qulog'i" da suv o'lchash inshootlari (gidropostlar) qurish orqali bajariladi.

Sholi boshqa ekinlarga nisbatan yil davomida eng yuqori hajmda, ya'ni 6 barobargacha ko'p suv talab qiladi. Mamlakatimizda sholining 90 foizdan ko'p qismi urug'i ekilgandan pishib yetilgunga qadar 100-130 kun davomida suvga bostirib yetishtiriladi. Sholini bostirib sug'organda yil davomida har gektar yer uchun 24 ming kub metrdan ziyod suv sarflanadi. Hosil pishib yetilguniga qadar sholi ushbu suvning 30-40 foizinigina o'zlashtiradi. Qolgan 60-70 foizi esa bug'lanib tuproqqa shimilib ketadi. Bu sholi ekilgan maydonning har gektarida yil davomida 10-15 ming kub metr suv behuda ketadi, deganidir. Demak, hozir innovatsion ishlarni, ilm-fanning ilg'or yutuqlari, suv va resurstejovchi texnologiyalar, yangicha yondashuvlar mazkur tarmoq uchun juda muhim.

Standart talablariga javob beradigan gidropostlar qurish va undan muntazam foydalanish, shu asosda suv hisobotini yuritish uchun Suv xo'jaligi vazirligi, Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot institutining olim va mutaxassislari xo'jaliklarning o'ziga borib o'qitish, o'rnatish, tavsiyalar berishni hozirdan rejalashtirgan. Gidropostlarni xo'jaliklarning o'zida qurish mumkin. Bunga ko'p mablag' talab qilinmaydi.

Shuningdek, Suv xo'jaligi vazirligi, Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot institutining olim va mutaxassislari tomonidan fermer, dehqon, tomorqa yerlarida asosiy va takroriy ekin sifatida sholini ko'chat qilib yetishtirish texnologiyasi hamda uning iqtisodiy samaradorligi to'g'risida ilmiy asoslangan tavsiyalar tayyorlangan. Xo'jaliklarda ushbu texnologiyani o'qitib o'rnatish va yuqori hosil yetishtirish bo'yicha amaliy ishlar boshlangan.

Gibridd va yangi biotexnologik
navlar — soha kelajagi

Prezidentimiz topshirig'iga asosan, Xitoyda yetishtiriladigan gibridd sholi navlarini yetishtirish tajribasini o'rganish hamda ichki iste'mol bozorini sifatli va arzon guruch bilan ta'minlash masalalari, mavjud muammolar tahlil qilindi.

Xitoy gibridd sholi yetishtirish texnologiyasini joriy etgan birinchi mamlakat

boshqadagi donlari yirik bo'lib, tarkibidagi kraxmal miqdori kam, foydali, shifobaxsh glyukoza hamda oqsil moddalarini ko'p bo'lishi kuzatilgan.

Keyingi yillarda Yaponiya, Xitoy va boshqa mamlakatlarda sholi genomini o'rganish bo'yicha ko'p tadqiqotlar olib borildi. Natijada sholining A vitaminiga boy, kraxmal moddasi kam, sho'rlanish, qurg'oqchilik, kasallik hamda hasharotlarga chidamli, biotexnologik navlar yaratilib, ishlab chiqarishga keng tatbiq qilinmoqda.

Genomika va bioinformatika markazida akademik Ibrohim Abdurahmonov rahbarligida bug'doyning qo'shimcha hosildor poyalari ko'payib, rivojlanishi uchun muhim bo'lgan RHVA 1 genining RHK interferensiyasi orqali bug'doyning yangi biotexnologik "Barkamol" nomli navi yaratildi. Sholi ham bug'doy kabi boshqoqli donli ekinlar turkumiga kiradi. Shuning uchun sholining yangi navlarini yaratishda ham bug'doyda qo'llangan mazkur texnologiyani amaliyotga joriy etish mumkin.

Tadqiqotning birinchi bosqichida Genomika va bioinformatika markazida mavjud bo'lgan RHVA 1 geni uchun yaratilgan genetik konstruksiya transformatsiya qilinadi. Ikkinchi bosqichda transformantlar molekulyar skrining orqali tanlab olinib, avval laboratoriya sharoitida, keyin dala sinovidan o'tkaziladi. Natijada hozirgi global iqlim o'zgarishi sharoitida sholining inson organizmidagi yurak, buyrak, jigar, o'pka kabi barcha kasalliklarni davolashda eng ko'p foydalanadigan A vitaminiga boy, suvsizlik, sho'rlanish, qurg'oqchilik, kasallik hamda hasharotlarga chidamli, hosilning pishish davrini 20-25 kun tezlatib, sifatli va hosildorligi yuqori bo'lgan yangi biotexnologik sholi navlari yaratiladi. Bu tadqiqot hozir nazariy va amaliy jihatdan Yevropa hamda Osiyo mamlakatlarida tan olingan hamda ularda ushbu tadqiqot qo'llanmoqda.

Shuni hisobga olib, birinchidan, Sholichilik ilmiy-tadqiqot institutida Genomika va Bioinformatika markazi tajribasini o'rganib, institut sharoitida laboratoriya tashkil qilish, sholining biotexnologik navlarini yaratish bugunning muhim vazifalaridan.

Ikkinchidan, Xitoydan sholining ser-hosil, yurtimiz tuproq iqlim sharoitiga mos gibridd navlarini olib kelib, tadqiqotlar o'tkazish, sholining yuqori hosilli gibridd navlarini yaratish, ularning kompleks agrotexnologiyalarini o'zlashtirish va keng joriy qilish zarur.

Uchinchidan, sholini ko'chat usulida ekish maqsadga muvofiq. Sholi ko'chatlab ekilganda har gektar yerdan suvning yillik

Yer resurslaridan samarali foydalanib, suv va boshqa manbalarni tejaydigan, pishish davrini tezlashtirib, bir yilda ikki marta hosil olish uchun qo'llanadigan sholini ko'chat qilib ekish usuli sinalgan texnologiyadir. Ushbu texnologiya eng ko'p suv talab qiladigan sholi ekinini yetishtirishda tejamkor va samarali usul hisoblanadi. Hozir dunyo bo'yicha sholi maydonining 90 foizida ko'chat qilib ekish texnologiyasi qo'llanmoqda.

me'yori — 40, urug'lik sholi materiallari — 60, kimyoviy gerbitsidlar — 50, mineral o'g'itlar — 25, mehnat sarfi (mexanizmlar bilan ekilganda) 60 foizgacha tejalishi, hosilning erta pishib yetilishi 25-30 kungacha erta bo'lishi aniqlangan.

Ham sholi, ham baliq
yetishtiriladi

Vyetnamdagi nam va issiq iqlim sharoiti sholi yetishtirishga eng qulay sharoit hisoblanib, mahalliy dehqonlar har yili sholidan 2-3 marta hosil olishni va sholipoyalarda sholi bilan birga baliq yetishtirishni yo'lga qo'ygan. Sholidan olinadigan hosil bo'yicha Vyetnam dunyoda birinchi o'rinda turadi.



Hozir Vyetnamda yetishtirilgan guruch formasi, o'lchami dunyo standartiga mosligi, ayniqsa, biokimyoviy tasnifiga ko'ra, endospermasida amilozalar (kraxmal formasi) kam bo'lgani uchun dunyo bozorida eng xaridoridir. Iste'mol qilinadigan oziq-ovqatlar, jumladan, bug'doy, kartoshka va guruchda kraxmal hamda uning formasi me'yordagidan ko'p bo'lsa, odam organizmidagi immunitet darajasi pasayib, turli kasalliklarni keltirib chiqarishga sabab bo'ladi. Shuning uchun O'zbekiston iqlim sharoitida ham yuqoridagi talabga javob beradigan sholi navlarini yaratib, ekishga joriy qilish lozim.

Sholipoyalarda sholi bilan birga baliq yetishtirish, hozir dunyo bo'yicha qishloq xo'jaligini rivojlantirishda har bir soha va tarmoqda aniq hisob-kitob bilan ishlatilishi talab qilinayotgan, ekinlar uchun suvdan unumli foydalanish, bir vaqtning o'zida qimmatbaho baliq va guruch mahsulotlarini yetishtirish kunning eng dolzarb masalalaridan. Sholipoyalarda baliq yetishtirishda sholi hosildorligi gektaridan 40-50 sentnerdan bo'lib, baliq hosildorligi esa 180 kilogramm va undan ortiq bo'lishi O'zbekiston iqlim sharoitida o'tkazilgan tadqiqotlar, tajribalarda bir guruh ixtiolog olimlar tomonidan o'rganilgan.

Shu bilan birga, zamonaviy ixtiologiyaga bog'liq bilimlari, yosh kadrlarni, sholichilik va u yerdagi baliq yetishtirish bo'yicha mutaxassislar tayyorlash mumkin. Buning uchun Toshkent davlat agrar universitetida sholichilik fakulteti yoki kafedrasini tashkil qilib, sholi bilan birga baliq yetishtirish bo'yicha dars soatlari va amaliy metodik mashg'ulotlarni kengaytirish kerak bo'ladi.

Malakali ilmiy kadrlar,
axborot muhiti va
raqamlashtirish

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, soha ilmini puxta egallagan, tajribali kadrlar yetishmaydi. Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti faoliyat boshlaganiga 80 yildan oshganiga qaramay, sohada olim va mutaxassislar juda kam.

Bundan o'n-o'n besh yil oldin bir qancha olim, mutaxassislar aynan sholichilik ilm-fani amaliyoti bo'yicha Filippindagi Xalqaro sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti(IRRI) ga, Yaponiyaga, Janubiy Koreyaga, Xitoyga va boshqa davlatlarga malaka oshirishga yuborilgan. Afsuski,

ushbu kadrlarning bilimlaridan, xalqaro miqyosda o'rganib kelgan tajribalaridan yetarli darajada foydalanilmayapti. Natijada bugungi kun talabi — qishloq xo'jaligida iqlim o'zgarishi sharoitlarida ham ekinlardan yuqori hosil yetishtirib, o'z aholisini ta'minlab, chetga ham eksport qilayotgan dunyo mamlakatlarining ilg'or ilm-fan, innovatsion texnologiyalarini, tajribalarini o'rganish va mamlakatimizda joriy qilish ishlari sust ketmoqda.

Binobarin, davlatimiz rahbari oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda, respublikamiz aholisini o'zimizda yetishtirilgan mahsulotlar bilan to'la ta'minlash, narxlarini tushirish to'g'risidagi masalalarga juda katta e'tibor berib, qishloq xo'jaligining barcha sohalarida ertangi kunni, kelajagini o'ylab ish ko'rish ustuvor vazifa sifatida qaralayotgani bejiz emas. Hozirgi vaqtda biz butun kuch-quvvatimizni sarflab, sohalariga ilmiy yondashuvni to'g'ri tashkil etish va malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish birinchi darajali vazifalarimizdan.

Shu sohaning vakili sifatida aytmoqchimanki, sholichilik ilm-fani amaliyotini rivojlantirishda mavjud muammolar va ularni innovatsion texnologiyalarga asoslangan yechimlarda fidoyi olim hamda mutaxassislarining o'rni bo'lakcha.

Hozirgi vaqtda zamonaviy qishloq xo'jaligini ilg'or ilm-fan va zamonaviy texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin. Yuqori va sifatli hosil yetishtirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun ana shu ikki jihatni uyg'unlashtirish zarur. Olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar, yaratilayotgan ilg'or texnologik ishlanmalar zamirida ana shu maqsad mujassamdur.





Munosabat

PEDAGOGLAR MAQOMI
YANADA ULUG‘LANDI

Abdug‘affor QIRG‘IZBOYEV,
tarix fanlari doktori,
professor

O‘rta Osiyoda ham eng qadimgi davrlardan oq ustozga alohida ehtirom ko‘rsatilgan. Uni otadek ulug‘lash lozimligi yosh avlodga tarbiya jarayonida singdirib borilgan. Masalan, qadimgi So‘g‘diyona 4 yoshdan boshlab bolalarni savdo-sotiqqa o‘rgatishgan va yaxshi ustoz qo‘liga topshirib, tadbirkorlik ko‘nikmalariga ega bo‘lishiga alohida e‘tibor qaratilgan.

“Avesto”da tarbiyachilarning burchi va majburiyatlariga ham qonuniy tus berilgan. Ularga chechan, uddaburon, tanbal, befarq, mas‘uliyatsiz kabi tavsiflar berilib, yaxshi va yomon ustozlarga ajratilgan. Unda yaxshi ustoz yoshlarni haqiqat sari yetaklashi, ularga yo‘lboshchilik qilishi, hayotni sevishga o‘rgatishi lozimligi belgilagan.

Zardo‘shiylik dinining muqaddas kitobi — “Avesto”da tarbiyachi masalasiga ko‘p marotaba murojaat qilinib, yomon tarbiyachilar qoralangan: “Yomon tarbiyachi o‘z ta‘limi bilan ilohiy so‘zlarni teskari qiladi va tiriklik idrokini xarob aylaydi. Haqiqatda, u odamlarni rostlikning bebaho sarmoyasidan va Ezgu Niyatdan bahrasiz aylaydi”. Birinchi va Ikkinchi Renessans davri mutafakkirlari ham ustoz va mudarrisning obro‘si, burchi va majburiyatlari haqida alohida fikrlar bayon etgan. Jumladan, Abu Nasr Forobiy: “Ustoz shogirdlariga katta zulm ham, haddan tashqari ko‘ngilchanlik ham qilmasligi lozim. Chunki ortiqcha zulm shogirdga nisbatan nafrat uyg‘otadi-yu, ustoz juda ham yumshoq bo‘lsa, shogird uni mensimay qo‘yadi va u berilgan bilimdan sovit ham qoladi”, deydi.

Ayniqsa, XIX asr oxirida yurtimizda ma‘rifatparvarlik harakatining paydo bo‘lishi bilan o‘qituvchining saviyasiga alohida e‘tibor qaratila boshlagan. Jadidchilik harakati avj olgan

Pedagoglarning ko‘p yillar davomida majburiy mehnatdan qiynalib, dardini hech kimga ayta olmagan, qancha-qancha zulm va qiynoqlar ostida qolayotganini qalbdan his qilgan Shavkat Mirziyoyev Prezident bo‘lganidan boshlab yangi O‘zbekistonda pedagog maqomini yuksakka ko‘tarish, uning huquq va majburiyatlarining qonuniy asoslarini yaratishni asosiy maqsadlaridan biri, deb bildi.

Pedagoglik — ijtimoiy faoliyat turi sifatida uzoq tarixga ega. Qadimgi Mesopotamiya, Bobil, Ossuriya, Hindiston, Xitoyda pedagoglar yuqori ijtimoiy mavqe va shunga muvofiq yuqori ish haqiga ega bo‘lgan. Xitoyda esa o‘qituvchiga faxrli inson sifatida qarashgan.

paytlarda o‘z davrining rivojlangan mamlakatlarida maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan, ilg‘or usullarda dars beradigan yangi muallimlar faoliyat yurita boshlagan. O‘qituvchilar salohiyatining oshgani milliy uyg‘onishni yuzaga keltirib, o‘lkada taraqqiyotning ma‘lum darajada tezlashuviga olib kelgan.

Sobiq sho‘rrolar tuzumi va mustaqilligimizning birinchi choragida pedagoglar yosh avlodga ta‘lim-tarbiya berish bilan birga turli majburiy mehnatga jalb qilingani hech kimga sir emas. Chunki o‘qituvchi o‘z huquqini talab qila olmas, agar qarshilik ko‘rsatsa, uni himoya qiladigan qonunning o‘zi yo‘q edi.

Pedagoglarning ko‘p yillar davomida majburiy mehnatdan qiynalib, dardini hech kimga ayta olmagan, qancha-qancha zulm va qiynoqlar ostida qolayotganini qalbdan his qilgan Shavkat Mirziyoyev Prezident bo‘lganidan boshlab yangi O‘zbekistonda pedagog maqomini yuksakka ko‘tarish, uning huquq va majburiyatlarining qonuniy asoslarini yaratishni asosiy maqsadlaridan biri, deb bildi.

Ayni davrda mamlakatimiz ta‘lim sohasida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar ro‘y bermogda. Bilim dargohlarining qiyofasi o‘zgarib, moddiy-texnik bazasi yaxshilanyapti, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash kuchaytirilmoqda, jumladan, o‘qituvchilarning mashagqatli mehnatini munosib qadrlash va rag‘batlantirish doimiy e‘tibordir.

Yoshlarga ta‘lim va tarbiya berish tamomila yangi bosqichga ko‘tarildi. Oxirgi yetti yilda maktabgacha ta‘lim bo‘yicha qamrov darajasi 27 foizdan 74 foizga, oliy ta‘limda esa 9 foizdan 42 foizga, oliygohlar soni 77 tadan 212 taga yetkazildi.

Pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta‘lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy qilish holda, zamonaviy ta‘lim dasturlari ishlab chiqish, yuqori malakali professional kadrlar tayyorlashni yangi bosqichga ko‘tarish, shuningdek, pedagogika sohasida ta‘lim, ilm-fan va amaliyot uyg‘unligini ta‘minlash maqsadida Prezidentimizning 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta‘lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta‘lim muassasalar faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda “Nizomiy nomidagi Toshkent

davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari qabul qilindi. Hududlarda yangi pedagogika oliygohlari tashkil etildi.

Davlatimiz rahbarining bevosita tashabbusi bilan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish, tarbiyalash,



xalqning ma‘naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e‘tirof etilishi, davlat o‘qituvchilarning sha‘ni, qadr-qimmatini himoya qilishi, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘ssishi bo‘yicha g‘amxo‘rlik ko‘rsatishi belgilab qo‘yildi.

Joriy yil 1-fevral kuni Prezidentimiz “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi qonuni imzolashi chinakam ma‘nodagi tarixiy voqe‘lik bo‘ldi. 21 ta moddadan iborat mazkur qonunda pedagoglarning huquqlari, majburiyatlari hamda faoliyatining asosiy kafolatlari mustahkamlandi.

Garchi ensiklopediya va pedagogikaga doir adabiyotlarda “pedagog” tushunchasiga tavsiflar uchrasa-da, mazkur qonunning 3-moddasida “Ta‘lim tashkilotida qonunchilik hujjatlariga muvofiq tuzilgan mehnat shartnomasi asosida

“Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi qonun o‘qituvchi va muallimlarning pedagogik faoliyatini to‘liq himoya qilish, ularning o‘z kasbidan g‘ururga to‘lib, jonajon xalqimizdan rozi bo‘lib yashashining huquqiy kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

tajribali pedagog ham birkirtilishi esa, har jihatdan ma‘quldir.

Qonunda pedagogning kasbiy faoliyatiga aralashish, uni kasbiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan ishlarga jalb etish, hisobotlar va boshqa ma‘lumotlarni shakllantirish va taqdim etishni talab qilish, pedagogni ishga joylashtirilmagan, ta‘lim bilan qamrab olinmagan va profilaktika hisobida turgan voyaga yetmaganlar hisobini yuritish hamda uning ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashish ishlarga jalb etish, pedagogning zimmasiga tovar va xizmatlarni sotib olish majburiyatini yuklash taqiqlab qo‘yilgan.

Shuningdek, mazkur hujjatda biron-bir shaklda mehnatga majburiy tarzda jalb etishdan ozod bo‘lgan pedagogning o‘n to‘rtta huquqi ham aniq belgilab berilgan. Ularning orasida kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoit yaratilishini talab qilish, o‘z kasbiy faoliyatiga g‘ayriqonuniy ravishda aralashuvdan himoyalash, pedagogik faoliyati davomida o‘ziga birkirtilgan sinfdagi (guruhdagi, kursdagi) ta‘lim oluvchilar bilimni mustaqil baholash, ta‘lim oluvchilar va ularning ota-onalari (qonuniy vakillari) tomonidan pedagogning kasbiga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni talab qilish, davlat sog‘liqni saqlash muassasalarida majburiy tibbiy ko‘rikdan bepul o‘tish, ta‘lim oluvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etish kabi huquqlar bor.

Huquqlar bilan birga hamma vaqt majburiyatlar ham belgilanishi, tabiiy. Qonunning yana bir jozibadorligi shundaki, pedagogning majburiyatlari u ko‘p duch keladigan ayrim holatlarda huquq sifatida foydalanish imkonini berishidir. Masalan, pedagogning o‘quv mashg‘ulotlari davomida ta‘lim oluvchilarning bilim darajasini oshirish uchun zarur choralar ko‘rish majburiyati o‘quv dasturlari va adabiyotlardagi kamchiliklar, xatolarga nisbatan o‘z fikrini bildirib, ularni isbotlab, kelgusida takrorlanmasligining oldini olish orqali ta‘lim oluvchilarga ilmiy asoslangan, kamchiliklardan xoli darsliklardan foydalanishga erishish imkoniyatini beradi.

Ta‘lim tashkilotlarida duch kelinib, yechim topishga qiyinalib qoladigan bir vaziyatga qonunda aniq yechim taqdim etilgan. Ya‘ni o‘quv rejai va o‘quv dasturi o‘zgarganda (yangi fan kiritilganda

yoki mavjud fan chiqarib tashlanganda) davlat ta‘lim tashkilotlarining pedagoglarini yangi turdosh fan bo‘yicha qayta tayyorlash O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshirilishi qayd etib o‘tilgan.

Ta‘lim tashkilotlarida ko‘pchilik rahbarlar o‘qituvchilarning qat‘iy jadval asosida ish vaqtida bo‘lishini talab qiladi. Biroq o‘qituvchilik kasbi to‘liq normaga solinadigan faoliyat turi emas. O‘qituvchi o‘z ustida ishlashi, yangi darsga tayyorgarlik ko‘rish uchun erkinlik, ijodiy-mustaqil ishlash imkoniyati taqdim etilishi zarur. Qonunning “Pedagoglarni ijtimoiy himoya qilish” deb nomlangan moddasida ta‘lim tashkilotlarining pedagoglari uchun qisqartirilgan ish vaqti belgilanishi ko‘rsatilgan. O‘qituvchi pedagogik faoliyatining uch (tayyorgarlik, asosiy, yakuniy) bosqichdan iborat ekanini hisobga olsak, bu juda to‘g‘ri kiritilgan. O‘qituvchining darsga tayyorgarlik ko‘rish, ya‘ni pedagogik faoliyatining birinchi bosqichi juda muhim. Yangi o‘tiladigan darsga o‘qituvchi uyida yoki kutubxonada (mutaxassisligi bilan bog‘liq boshqa tashkilotlarda ham) jiddiy tayyorlanishi kerak bo‘ladi. Darsning sifati, albatta, mana shu tayyorgarlikka bog‘liq. Agar o‘qituvchi ertalabdan kechgacha ta‘lim tashkilotida o‘tursa, uning darsga tayyorgarlik ko‘rishiga vaqti qolmaydi.

Qonunda pedagogik faoliyati bilan shug‘ullanishiga yo‘l qo‘yilmaydigan shaxslar haqida aniq normalar belgilangan. Jumladan, qonunchilikda belgilangan tartibda sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan, deb topilgan shaxslar, pedagoglik faoliyati bilan shug‘ullanishga to‘sqinlik qiladigan kasalligi bo‘lganlar, psixiatriya yoki narkologiya muassasalarida hisobda turganlarning pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ilgari sudlangan shaxslarni pedagogik faoliyat bilan bog‘liq lavozimlarga ishga qabul qilish qat‘iyan man etilgan.

Umuman olganda, “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi qonun o‘qituvchi va muallimlarning pedagogik faoliyatini to‘liq himoya qilish, ularning o‘z kasbidan g‘ururga to‘lib, jonajon xalqimizdan rozi bo‘lib yashashining huquqiy kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

Daxldorlik

BITIRUVCHILARGA HALOLLIKNI UQTIRYAPMIZ



Madamin MADAZIMOV,
tibbiyot fanlari doktori,
professor

O‘zbeklar azaldan uyg‘oq millat. Uyg‘oqlik tomirimizda, joniimizda, vijdonimizda bor. Buyuk tariximizga boqing. Dunyoni uyg‘otgan bobolarimiz emasmi?! Bedorlik tojini kiygan Sohibqiron Amir Temur yetti iqlimga hukmdorlik qildi. Sulton Mirzo Ulug‘bek osmon toqiga narvon qo‘ydi. Mudrab yotgan tamaddun beshigiga uyg‘onmoq saodatini bergan ko‘plab bobolarimizni dunyo tan olib turibdi-ku! Biz tarbiyalayotgan yigit-qizlar ana shunday ulug‘ va uyg‘oq mutafakkirlarning avlodi ekanini unutmasligi shart. Bugun dunyoga nazar solish juda oson. Qo‘limizda telefon, ijtimoiy tarmoqning xohlagan sahifasi orqali istagan mafkura targ‘ibotini ko‘rish mumkin. Bu esa ayni paytda xavfli hamdir. Yovuz niyatli kimsalar o‘z g‘oyasi atrofiga millatidan, dinidan qat‘i nazar, ko‘zga ko‘ringan odamni jamlab, dunyoga egalik qilishni istamoqda. Hozir odamlarda, ayniqsa, yoshlarda axborotga tashnalik kuchli. Biroq ijtimoiy tarmoqlardagi shov-shuvli, tahlikaga soluvchi, ba‘zida o‘ta nafratlanarli xabarlar mentalitetimiz, qadriyatlarimizga aslo mos kelmaydi.

Axborot asrida yashayapmiz. Hayotimiz internet bilan chambarchas bog‘lanib bo‘ldi. Yer kurraasi geosiyosiy munosabatlarga, nizolar, axborotlar, mafkuralar oqimida o‘zgarib turibdi. Xalqning tinchligi, xavfsizligini ta‘minlash, millatning ma‘naviy, mafkuraviy boyliklarini saqlash har doimgidan-da dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bunday sharoitda doim fikran uyg‘oq bo‘lish talab etiladi.

Bugun O‘zbekiston jahon ayvonida siyosiy pozitsiyasiga, nufuzi va mavqeiga ega. Ammo davlatni davlat, millatni millat qiladigan omil uning ma‘naviy qiyofasidir. Prezidentimiz bu borada juda ham ta‘sirli chaqiriqni o‘rtaga tashladi:

“O‘zimizga bir savol berib ko‘raylik: biz hozirgi keskin sharoitda g‘oyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyormizmi? Yosh avlodimiz tarbiyasi murakkab zamon talablariga javob beryaptimi?”

Mana, bugun ma‘naviy-ma‘rifiy sohada masala qanday o‘tkir va ko‘ndalang bo‘lib turibdi. Bular oddiy savollar emas. Odamni jiddiy o‘ylantiradigan, tashvishga soladigan savollar. Agar biz bu yorug‘ dunyoda “o‘zbek”, “O‘zbekiston” degan nomlar bilan yashab qolishni istaydigan bo‘lsak, bu savollarga bugun

javob topishimiz va ularni hal etish bo‘yicha amaliy harakatlarni aynan bugun boshlashimiz shart. Ertaga kech bo‘ladi”.

Barcha sohadagi islohotlarimizning pirovard natijasi, bizningcha, taraqqiy etgan, dunyo bilan bo‘ylashgan O‘zbekiston degan davlatning vatanparvar, el-yurt ishiga fidoyi, millatini, davlatini har qanday vaziyatda ham himoya qiladigan, rivojlantiradigan, asrab-avaylaydigan, qadriyati, ajdodlari, ma‘naviy-ma‘rifiy, ilmiy, badiiy merosi bilan faxrlanib, unga sadoqat ko‘rsatadigan avlodni tarbiyalashdir.

Boshlangan yilimizning “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” deb nomlanishida ham islohotlar markazida kelajagimiz bo‘lgan yoshlar siyosati ustuvorligini ko‘ramiz. Bu siyosat bir yil bilangina cheklanib qolmay, tizimli davom etayotir.



Bebaho boyligimiz — inson salomatligiga e‘tiborni kuchaytirish, tibbiyot tizimini takomillashtirish borasida oldimizga qo‘yilgan vazifalar tibbiyot tizimi uchun dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi.

Andijon davlat tibbiyot instituti jamoasi doimiy o‘qib-o‘rganishda, ilmiy izlanishda. Ta‘lim dargohimiz 60 dan ortiq xorijiy tibbiyot oliy ta‘lim muassasasi bilan hamkorlik o‘rnatgan. Xususan, Koreya katolik universiteti, Savitribai Phule Pune universiteti, Dr.D.Y.Patil Vidyapeeth, Pune universiteti (Hindiston), Qozon federal universiteti, A.V.Vishnevskiy nomidagi Milliy tibbiy tadqiqot jarrohlik markazi, Almazov nomidagi yurak jarrohlik markazi (Rossiya) va boshqa universitetlar bilan aniq reja asosida tizimli ishlar yo‘lga qo‘yilgan.

Institutimizning Hindistonda 3 ta, Janubiy Koreyada 1 ta vakolatli ofisi ochilgan. Bu institutimizga xorijlik talabalarni jalb etish va abituriyentlarni qiziqitirgan savollarga shu davlatlarning o‘zida to‘liq javob olishga imkon beradi.

O‘tgan yili 40 ga yaqin xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumaniga mezbonlik qildik. Institutga xorijlik mutaxassislarni jalb etgan holda ma‘ruza va amaliy mashg‘ulotlar o‘tish yaxshi tashkil etilgan. Jumladan, 8 nafar xorijlik mutaxassis

ishga qabul qilindi. Shuningdek, 58 professor-o‘qituvchi xorijiy davlatlarda malaka oshirib qaytdi. Institut doktori 10 ta doktorlik, 44 ta falsafa doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli yoqladi. Shuningdek, ilmiy faoliyatida munosib izlanish qilayotgan talabalarimiz ham yutuqlari bilan ustozlarini quvintirmoqda. Ular orasida nomdor stipendiya sohiblari, nufuzli ilmiy olimpiadalar g‘oliblari borigi bizga faxr-iftixor bag‘ishlaydi.

Samarqand shahrida “Science box” ilmiy markazi tashabbusi bilan bir necha xalqaro tashkilot hamkorligida tashkil etilgan “Ilmiy tadqiqotchi” ilmiy-amaliy tanlovi hamda “Ilmiy tadqiqotning o‘rni: muammo va yechimlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada institutning iqtidorli talabalari faol ishtirok etib, diplom va ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi. Akusherlik va ginekologiya fanidan xalqaro talabalar fan olimpiadasida 6 nafar iqtidorli talaba qizimiz 1-o‘rinni egalladi.

Iste‘dodli, bilimli talabalarimizning muvaf-faqiyati haqida yana ko‘plab missollar keltirish mumkin. Albatta, yutuqlar o‘zimizniki. Biz bu bilan chegaralanib qolmaymiz. Izlanish, o‘qib-o‘rganish doimiy vazifaga aylangan. Institutimizda 1,5 ming o‘rinli 4 ta talabalar turar joyi mavjud. Unda hozir 1550 yigit-qiz yashaydi. Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli

o‘tkazish uchun zarur sharoit muhayyo va turli mashg‘ulotlar tashkil etilgan. U yerda institut psixologi, tarbiyachi pedagog, fakultetlar dekanining yoshlar bilan ishlash bo‘yicha o‘rinbosarlari, tyutorlar bilan hamkorlikda tizimli ishlar qilinmoqda. Bundan tashqari, ijara uylarda yashayotgan talabalarimizning yurish-turishi, tarbiyasi, mashg‘ulligi doimiy nazoratimizda.

Biz tibbiyot sohasiga malakali va bilimli kadrlar yetishtirib berish barobarida ertaga kelajagimizni bemaol qo‘liga topshira oladigan, o‘z fikriga ega, yurt quvonch-u tashvishiga yelkadosh va daxldor bo‘lgan yoshlar tarbiyasi jamiyatimizda ekanini bir lahzama ham yoddan chiqarmaymiz. Shogirdlarimiz odamlarni tanasidagi dardlardan xalos etish bilan birga, ularning ongu shuuri salomatligi uchun javobgardir.

Yana bir jihatga to‘xtalmoqchiman. Xalqimiz salomatligini mustahkamlash, aholini sifati va arzon dori-darmon bilan ta‘minlash doimiy e‘tiborda bo‘lib kelmoqda. Tibbiy xizmatlar ko‘lami va sifatini oshirishga qaratilgan 30 ga yaqin farmon va qaror qabul qilindi.

Sifati va hamyonbop dori-darmon ta‘minoti borasidagi talabarga asosan, bemorlarga tavsiya etiladigan dori-darmonlarni tartibga solish tadbirlari boshlandi. Narxi qimmat, kelib chiqishi noaniq va jimjimador nomdagi dori-larga pul sarflashni to‘xtatish, uning o‘miga sifati mahalliy dori-larga o‘rin berish kun tartibiga ko‘tarildi. Axir o‘tgan yili shamollashga tavsiya qilingan xorij dorisini ichish ortidan ko‘dalar qancha azob chekkani, qanchasining umri xazon bo‘lgani barcha uchun katta saboq bo‘ldi. Bunday noxush holatlar yuz bermasligi uchun tizimda jiddiy o‘zgarishlar qilish taqozo etilmogda.

Palapartish dori tavsiya etishga barham berish vaqti keldi. Shuningdek, shifokorlar va turli farmatsevtika kompaniyalarining o‘zaro manfaatli hamkorligiga ham nuqta qo‘yish shart. Tibbiyot muassasalaridagi dori firmalari taqvimlari, yorliqlari, esdalik bukletlar va boshqa reklama jihozlari bemorni chalg‘itmasligi kerak. Bugun bitiruvchilarniz o‘qimadigan uszilagan holda viloyatdagi tibbiyot muassasalarida faoliyat yuritmoqda. Ish jarayonida mana shu jihatlariga e‘tibor qaratishni uqtiryapmiz. Chunki shu Vatanda yashar ekanimiz, faoliyatimizning har lahzasida unga daxldor ekanimizni his qilish burchimizdir.

